

EKOVOLONTYORLIK FAOLIYATINING YOSHLARNING EKOLOGIK BILIM VA MAS'ULIYATIGA TA'SIRI

Ibodullayeva Sabina

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Biologiya kunduzgi ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ekovolontyorlik faoliyatining yoshlarning ekologik bilim darajasi, ekologik ong va mas'uliyat hissini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Bugungi kunda global ekologik muammolar kuchayib borayotgan bir sharoitda yoshlarning tabiatni muhofaza qilishga faol jalb etilishi barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqolada ekovolontyorlik tushunchasining mohiyati, uning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlari, shuningdek, yoshlarning ekologik xulq-atvoriga ta'siri ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari ekovolontyorlik faoliyatida ishtirok etgan yoshlarning ekologik bilimlari va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabati sezilarli darajada oshishini ko'rsatadi. Mazkur maqolada yoshlar siyosati, ekologik, ekologik ta'lim va fuqarolik jamiyati rivojida ta'lim va fuqarolik jamiyati rivojida ekovolontyorlik faoliyatini kengaytirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar. Ekovolontyorlik, ekologik bilim, ekologik mas'uliyat, yoshlar tashabbusi, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim, fuqarolik faolligi.

Аннотация. В данной научной статье анализируется значение эко-волонтерской деятельности в формировании уровня экологических знаний, экологической осведомленности и чувства ответственности у молодежи. Сегодня, в условиях растущих глобальных экологических проблем, активное участие молодежи в охране природы является одним из важных факторов устойчивого развития. В статье на научно-теоретической основе рассматривается сущность концепции эко-волонтера, его образовательные и воспитательные аспекты, а также его влияние на экологическое поведение молодежи. Результаты исследования показывают, что экологические знания и ответственное отношение к окружающей среде у молодежи, участвующей в эко-волонтерской деятельности, значительно возрастают. В статье обосновывается необходимость расширения эко-волонтерской деятельности в развитии молодежной политики, охраны окружающей среды, экологического образования и гражданского общества.

Ключевые слова. эко-волонтерство, экологические знания, экологическая ответственность, молодежная инициатива, экологическая осведомленность, устойчивое развитие, экологическое образование, гражданский активизм.

Abstract. This scientific article analyzes the importance of eco-volunteer

activities in the formation of young people's level of ecological knowledge, ecological awareness and sense of responsibility. Today, in a context of increasing global environmental problems, the active involvement of young people in nature protection is one of the important factors of sustainable development. The article discusses the essence of the concept of eco-volunteer, its educational and educational aspects, as well as its impact on the environmental behavior of young people on a scientific and theoretical basis. The results of the study show that the ecological knowledge and responsible attitude towards the environment of young people participating in eco-volunteer activities significantly increase. This article justifies the need to expand eco-volunteer activities in the development of youth policy, environmental, environmental education and civil society.

Keywords. Eco-volunteerism, ecological knowledge, ecological responsibility, youth initiative, ecological awareness, sustainable development, ecological education, civic activism.

Kirish. Hozirgi globallashuv va texnogen rivojlanish sharoitida ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan dolzarb masalalardan biriga aylandi. Atrof-muhitning ifloslanishi, bioxilma-xillikning kamayishi, iqlim o'zgarishi kabi muammolarni bartaraf etishda nafaqat davlat siyosati, balki jamiyatning faol ishtiroki, ayniqsa, yoshlarning tashabbuskorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ekovolontyorlik faoliyati yoshlarning ekologik muammolarga bo'lgan munosabatini shakllantirishda samarali ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'loqda. Ekovolontyorlik- bu yoshlarning tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal etish va ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan ixtiyoriy, beg'araz va ijtimoiy foydali faoliyatdir. Mazkur faoliyat yoshlarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan shug'ullantirish, ekologik jarayonlarni bevosita kuzatish va muammolarni hal etishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Natijada yoshlarda ekologik bilim bir qatorda, atrof-muhit oldidagi shaxsiy mas'uliyat hissi ham shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yoshlarni ekologik muhofazaga jalb etishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. "Yashil makon" umummilliy loyihasi, ekologik aksiyalar, ko'klamzorlashtirish tadbirlari va ekoklublar faoliyati yoshlar ekovolontyorligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shunday bo'lsa-da. Ekovolontyorlik faoliyatining yoshlarning ekologik bilim va mas'uliyatiga real ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. "Yashil makon" harakati doirasida bahor oylarida mevali va manzarali ko'chatlar ekish an'anaga aylanib bormoqda. O'zbekistonda daraxtlar va o'simliklar dunyosi bioxilma-xillikka ega bo'lib borayotgan bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda oxirgi vaqtlarda shuni ko'rish mumkin-ki, jamoatchilikning

e'tibori ko'kalazorlashtirish, tabiatga qayg'urish, ko'chat o'tkazish kabi sohalarga ancha kuchaygan.

Bundan tashqari, har yili "Yashil makon" harakati asosida daraxtlarning sifatli sug'orilishi va parvarishi, bu boradagi ishlarning javobgarligi, ularga nisbatan ko'riladigan choralar, hatto olimlarning fikri olinishi, daraxtni hududning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ekilishigacha e'tibor berilmoqda. Shuningdek, xodimlar fuqarolarga jamoat joylarida tozalik va ozodalikka rioya etishlarini, atrof muhitni chiqindilar bilan to'ldirish emas, ulardan tozalashda faol bo'lishlarini ta'kidlashmoqda. Qaerda noqonuniy daraxt va boshqa o'simlik, yoki hayvonlarni nobud qilishga urinish holatlari kuzatilsa bu haqda darhol tegishli idoralarga xabar berish lozimligi tushuntirilib uning huquqiy asoslari mustahkamlab borilmoqda. Eng quvonarlisi yashillik muhim ekanini ko'pchilik qatori voyaga etib kamol topayotgan yoshlar qatlami ham tushunib etmoqda. Hozirda ekologik nazorat inspeksiyalari va ularga tayanch vazifasini bajaruvchi ekopatrul guruhlar ham faol harakatlar olib bormoqdalar, ularga hududlarni o'rganish, tezkorlik bilan joylarga borish vakolatlari berilgan.

Volontyorlik dasturi quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

- Iqlim o'zgarishlari va iqlimga qarshi choralar haqida xabardorlikni oshirish, ayniqsa, bolalar va yoshlar orasida.
- Bolalar va yoshlar orasida barqaror rivojlanish uchun munosabat va xulq-atvorni o'zgartirishni mustahkamlash.
- Yoshlarning iqlim o'zgarishi, yengillashtirish, moslashuv va barqarorlik bilan bog'liq sohalarda ishtirokini va fuqarolik faolligini oshirish.
- Yoshlarning iqlim bilan bog'liq sohalarda o'qishni va kasb-hunarni davom ettirishga qiziqishini oshirish.
- Yoshlar uchun iqlim bilan bog'liq sohalarda amaliy bilimlar, ko'nikmalar va dastlabki tajriba olish imkoniyatlarini oshirish.

Shuningdek, ekovolontyorlik faoliyati yoshlarning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirib, ularda "tabiat-jamiyat-inson" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash ko'nikmasini rivojlantiradi. Ekologik aksiyalar, monitoring ishlari, ko'kalazorlashtirish tadbirlari va targ'ibot faoliyati jarayonida yoshlar nafaqat ekologik bilimlarga ega bo'ladi, balki jamoada ishlash, ijtimoiy tashabbus ko'rsatish va ekologik muammolarga befarq bo'lmaslik kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni ham egallaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekovolontyorlik faoliyatining keng targ'ib qilinishi yoshlar o'rtasida ekologik harakatlarning ommalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon yoshlarning ekologik mas'uliyatini faqat mahalliy miqyosda emas, balki global ekologik muammolar kontekstida ham anglashiga zamin yaratadi. Shu boisda, ekovolontyorlik faoliyatining yoshlarning ekologik bilim va mas'uliyatiga ta'sirini

ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ekovolontyorlik faoliyati yoshlarning ekologik bilimlarini oshirish, ekologik ong va mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim ijtimoiy-pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ekovolontyorlik faoliyatida muntazam ishtirok etgan yoshlar ekologik muammolar mohiyatini chuqurroq anglaydi, tabiatga nisbatan ehtiyotkor va mas’uliyatni namoyon etadi. Shuningdek, ekovolontyorlik yoshlarning faolligini oshirib, ularni jamiyat hayotidagi muhim ekologik masalalarini hal etishga jalb etadi. Bu jarayon yoshlarning ijtimoiy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga, ekologik madaniyatning yuksalishiga va barqaror rivojlanish tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi. Kelgusida ta’lim muassasalarida ekovolontyorlik faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirish, yoshlar o’rtasida ekologik tashabbusni qo’llab-quvvatlash va ularni rag’batlantirish ekologik muammolarni samarali hal etishning muhim omili bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ostanov, J. E. (2023). Milliy qadriyatlar va yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 327 331.
2. To‘rayeva, L. I. (2024). Yosh avlodda ekologik madaniyatni rivojlantirish. TADQIQOTLAR.UZ, 49(5), 191 196. Retrieved from <https://scientific-jl.org/tad/article/view/2294> (scientific-jl.org)
3. Sadriddinova, Z. M. (2024). Milliy tarbiya asosida ekologik ongni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari. Scientific JL. Retrieved from <https://scientific-jl.com/trt/article/vie6w/24046> (Научные журналы)
4. Maxmirzayeva, Y. J., Madiyarova, A. S., & Nazarova, N. J. (2025). Yoshlar va ekologik muammo. Modern Education and Development, 26(3), 84 86.)